

**SHAHAR SHAROITIDA JANGOVAR HARAKATLAR TAKTIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH ASOSIY YO‘NALISHLARI**

*Jamoat havfsizligi universiteti
magistratura tinglovchisi
M.N. Olimjonov*

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy qurolli mojarolarning eng murakkab segmenti bo‘lgan shahar sharoitidagi jangovar harakatlar taktikasini takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda Rossiya Federatsiyasi Qurolli Kuchlarining so‘nggi yillardagi (Suriya va Ukraina) jangovar tajribasi asosida shturm guruhlarining tuzilishi, uchuvchisiz uchish apparatlarining (UUA) roli va taktik tibbiyotning ahamiyati yoritilgan. Maqolada shahar ichidagi "vertikal jang" va yer osti kommunikatsiyalaridan foydalanishning o‘ziga xos jihatlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, harbiy xizmatchilarni maxsus tayyorlashning to‘rtta asosiy yo‘nalishi — yopiq hududda jang qilish (CQB), muhandislik tayyorgarligi, taktik tibbiyot va psixologik chidamlilik bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: shahar jangi, shturm guruhi, Rossiya harbiy tajribasi, UUA (dronlar), taktik tibbiyot, vertikal jang, muhandislik tayyorgarligi, psixologik chidamlilik, urbanizatsiyalashgan hudud.

Аннотация: В данной статье анализируются вопросы совершенствования тактики ведения боевых действий в городских условиях, являющихся наиболее сложным сегментом современных вооруженных конфликтов. На основе боевого опыта Вооруженных сил Российской Федерации последних лет (Сирия, Украина) освещаются структура штурмовых групп, роль беспилотных летательных аппаратов (БПЛА) и значение тактической медицины. Рассматриваются особенности «вертикального боя» и использования подземных коммуникаций в городской черте. Также представлены практические рекомендации по четырем основным направлениям специальной подготовки военнослужащих: бой в закрытых пространствах (CQB), инженерная подготовка, тактическая медицина и психологическая устойчивость.

Ключевые слова: городской бой, штурмовая группа, российский военный опыт, БПЛА (дроны), тактическая медицина, вертикальный бой, инженерная подготовка, психологическая устойчивость, урбанизированная местность.

Abstract: This article analyzes the issues of improving combat tactics in urban environments, which represent the most complex segment of modern armed conflicts. Based on the combat experience of the Armed Forces of the Russian Federation in recent years (Syria, Ukraine), the structure of assault groups, the role of unmanned aerial vehicles (UAV), and the significance of tactical medicine are highlighted. The

features of vertical combat and the use of underground communications in urban areas are considered. Practical recommendations are also presented for four main areas of special military training: Close Quarters Battle (CQB), engineering training, tactical medicine, and psychological resilience.

Keywords: urban combat, assault group, Russian military experience, UAVs (drones), tactical medicine, vertical combat, engineering training, psychological resilience, urbanized area.

Bugungi kunda dunyoda harbiy majarolar avj olgan pallada shahar sharoitida jangovar harakatlar olib borish zamonaviy harbiy amaliyotning eng murakkab va xavfli yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. XXI asrda qurolli mojarolarning aksariyati aynan urbanizatsiya darajasi yuqori bo‘lgan hududlarda kechayotgani bu masalaning dolzarbligini yanada oshirmoqda. Zamonaviy harbiy konfliktlar Iroq, Afg‘oniston, Suriyadagi, Ukrainadagi shahar sharoitdagi janglar, shuningdek, Yaqin Sharq va Sharqiy Yevropadagi to‘qnashuvlar shahar sharoitidagi jangavor harakatlar taktikasini takomillashtirish zarurligini yaqqol ko‘rsatib bormoqda. Bu holat o‘z navbatida harbiy xizmatchilar, taktik mutaxassislar va harbiy ilmiy tadqiqotchilar uchun shahar janglari strategiyasi va mexanizmlarini chuqur o‘rganishni muhim vazifaga aylantiradi.

Shahar sharoitida jangovar harakatlar taktikasini takomillashtirish asosiy yo‘nalishlari quydagi jadvalda ko‘rishimiz mumkun.

T/r	Takomillashtirish yo‘nalishlari	Erishiladigan natijalar	izoh
1.	Kichik va mustaqil bo‘linmalarni rivojlantirish orqali-	Jangovar harakatlarning tezkorligi sezilarli darajada oshadi. Bunday bo‘linmalar vaziyatni tez baholab, yuqori qo‘mondonlikdan ko‘rsatma kutmasdan mustaqil qaror qabul qila oladi. Natijada operatsiyalarni bajarish vaqti qisqaradi hamda tashabbus doimo o‘z qo‘lida saqlanib qoladi.	
2.	Razvedka va kuzatuv tizimlarini kuchaytirish orqali-	Vaziyatni oldindan anglash va dushman harakatlarini erta aniqlash imkoniyati oshadi. Natijada qaror qabul qilish tezlashadi, xatoliklar kamayadi va noaniqlik darajasi pasayadi. Eng muhim natija — operatsion ustunlikni oldindan shakllantirish va tashabbusni qo‘lda ushlab turish imkoniyati kuchayadi.	

3.	Shturm (egallash) taktikasini takomillashtirish orqali-	Bu yo‘nalish rivojlansa, murakkab sharoitlarda harakatlar muvofiqligi va samaradorligi oshadi. Bo‘linmalar o‘rtasidagi koordinatsiya yaxshilanadi, yo‘qotishlar kamayishi mumkin va vazifani bajarish tezligi ortadi. Umuman olganda, murakkab hududlarni egallash jarayoni ancha tizimli va boshqariladigan bo‘ladi.
4.	Qo‘shma kuchlar o‘rtasida integratsiya orqali-	Agar turli kuch turlari (quruqlik, havo, maxsus bo‘linmalar va boshqalar) o‘rtasidagi integratsiya kuchaysa, yagona boshqaruv va muvofiqlashtirilgan harakat shakllanadi. Bu resurslardan samarali foydalanish, takrorlanishni kamaytirish va tezkor javob berish imkonini beradi. Natijada operatsiyalar yanada uyg‘un va kuchli bo‘ladi.
5.	Muhandislik va to‘siqlar bilan ishlash orqali-	Bu soha rivojlansa, harakatlanishdagi cheklovlar tezroq bartaraf etiladi va infratuzilmaviy moslashuv yaxshilanadi. To‘siqlarni yengish va muhitga moslashish qobiliyati oshib, operatsion davomiylik barqarorlashadi. Bu esa umumiy harakatchanlikni sezilarli darajada kuchaytiradi.
6.	Axborot va psixologik ustunlikni ta‘minlash orqali-	Bu yo‘nalish takomillashsa, axborot oqimini boshqarish va raqibning ruhiy holatiga ta‘sir qilish imkoniyati ortadi. Natijada qarshilik darajasi pasayishi, noto‘g‘ri qarorlar ehtimoli oshishi yoki tashabbus yo‘qolishi mumkin. Shu bilan birga, o‘z kuchlarining motivatsiyasi va ishonchi mustahkamlanadi.
7.	Tinch aholi bilan ishlash strategiyasi orqali-	Bu yo‘nalish yaxshilansa, hududdagi ijtimoiy barqarorlik saqlanadi va ziddiyatlar kamayadi. Aholi bilan ishonchli aloqa o‘rnatilishi operatsion muhitni yengillashtiradi. Natijada boshqaruv

		samaradorligi oshadi va uzoq muddatli barqarorlik ta'minlanadi.	
8.	Harbiy xizmatchilarni maxsus tayyorlash orqali-	Tayyorgarlik darajasi oshsa, shaxsiy va jamoaviy professionallik kuchayadi. Qiyin sharoitlarda tezkor qaror qabul qilish, stressga chidamlilik va moslashuvchanlik yaxshilanadi. Bu esa umumiy jangovar tayyorgarlikni yuqori darajaga olib chiqadi.	
9.	Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali-	Texnologiyalar keng joriy etilsa, avtomatlashtirish, aniqlik va tezkorlik sezilarli oshadi. Ma'lumotlarni qayta ishlash tezlashadi va inson omiliga bog'liq xatolar kamayadi. Natijada operatsiyalar yanada samarali, resurslar esa tejankor bo'ladi.	

Rossiya harbiy doktrinasida shahar janglarining asosiy bo'g'ini sifatida "**Shturm guruhleri**" va "**Shturm otryadlari**" tan olingan. Tarkibi odatda shturm guruhi 8 nafardan 15 nafargacha harbiy xizmatchidan iborat bo'lib, ular ichida pulemyotchilar, granatomyotchilar, snayperlar, sapyorlar va taktik tibbiyot mutaxassislari bo'ladi. Har bir guruh o'zining aloqa vositalari, dronlari va o't ochishni qo'llab-quvvatlovchi og'ir texnikasiga ega bo'lishi shart. Rossiya tajribasi shuni ko'rsatadiki, binolarni egallashda guruhning "uchlik" (troyka) yoki "to'rtlik" (chetvyorka) ko'rinishida ishlashi eng samarali usuldir. Bu usul bino ichida o'zaro himoyani va 360 darajali nazoratni ta'minlaydi [1].

2. Uchuvchisiz uchish apparatlari (UUA) va Razvedka

Rossiya tajribasining eng muhim jihati – bu dronlarni taktik darajaga integratsiya qilishdir. Har bir vzvod kamida 2-3 ta razvedka droni bo'lishi shart. Ular binoning qavatlarini, tom qismi va hovlilardagi dushman nuqtalarini aniqlaydi. Hozirgi kunda bino ichidagi dushman pulemyot nuqtalarini yoki snayperlarni yo'q qilishda an'anaviy artilleriyadan ko'ra FPV (First Person View) dronlari ko'proq samaradorlik ko'rsatmoqda. Harbiy xizmatchilarni tayyorlashda dron operatorlari bilan bevosita shturm guruhining hamkorligi (koordinatsiya) eng muhim yo'nalishga aylandi [2].

O't ochishni boshqarish va qurol-aslahalardan foydalanish shahar sharoitida uzoq masofali artilleriyaning samaradorligi pasayadi, chunki beton devorlar va yer osti inshootlari ishonchli himoya beradi. Rossiya taktikasida quyidagi yo'nalishlar takomillashtirilmoqda:

Olovli val - bu binoni shturm qilishdan oldin tank va tankka qarshi boshqariladigan raketalar (PTUR) orqali dushmanning aniqlangan nuqtalariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘t ochish hisoblanadi.

Portlovchi moddalar- sapyorlarning ro‘li oshgan. Devorlarni teshib o‘tish orqali bino ichiga kirish dushman kutmagan yo‘nalishdan hujum qilish imkonini beradi.

Shmel- bu ya‘ni termobarik granatomyotlardan foydalanish shahar janglarida eng yuqori samaradorlikni beradi, chunki u yopiq hududdagi dushman kuchini bir lahzada yo‘q qiladi [3].

Rossiya o‘quv markazlarida “Rossiya maxsus kuchlari universiteti” tayyorgarlik quyidagi 4 ta asosiy yo‘nalishga bo‘lingan

1. **Yopiq hududda jang qilish**- ya‘ni harbiy xizmatchilar xonaga kirish, burchaklarni tozalash, eshik va derazalardan o‘tish usullarini avtomatizm darajasiga yetkazadilar. Bunda o‘lik zonalarni nazorat qilishga katta e‘tibor beriladi.

2. **Taktik tibbiyot orqali**- ya‘ni shahar jangida yaradorlarni evakuatsiya qilish o‘ta qiyin. Shu sababli har bir jangchi o‘z-o‘ziga yordam va sherigiga yordam ko‘nikmalarini takomillashtirgan holda egallashi shart. Turniketlardan foydalanish va kuchli qon ketishini to‘xtatish uchun soniyalar juda muhim hisoblanadi.

3. **Muhandislik tayyorgarligi orqali**- ya‘ni har bir shturmchi portlovchi moddalar bilan ishlashni, dushman qoldirgan tuzoq-minalarni aniqlashni bilishi lozim. Shahar sharoitida hamma narsa eshiklar, o‘yinchoqlar, jasadlar minalangan bo‘lishi mumkin [4].

4. **Psixologik chidamlilik orqali**- ya‘ni doimiy portlashlar, shovqin va yopiq maydon qo‘rquvi harbiy xizmatchining ruhiyatiga kuchli ta‘sir qiladi. Maxsus tayyorgarlik doirasida stress-otishmalar o‘tkaziladi, ya‘ni jangchi jismoniy charchoq va kuchli shovqin ostida qaror qabul qilishi kerak.

Rossiya tajribasi shuni ko‘rsatdiki, shaharni egallash faqat yer usti jangidan iborat emas balki ko‘p qavatli binolar va yer osti kommunikatsiyalarini ham hisobga olish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Vertikal jang-bu dushman bir vaqtning o‘zida binoning podvali, o‘rta qavatlar va tom qismida joylashishi mumkin. Hujum har doim yuqoridan pastga yoki bir vaqtning o‘zida barcha qavatlarga bo‘lishi mumkin.

Kanalizatsiya va metrolar- ya‘ni yer osti yo‘llari dushman uchun kutilmagan manyovrlar qilish va logistika markazi bo‘lib xizmat qiladi. Ularni nazorat qilish uchun maxsus datchiklar va robotlashtirilgan komplekslardan foydalanish kerak bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joiz Rossiya harbiy tajribasi tahlili shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy shahar janglari an‘anaviy keng ko‘lamli harakatlardan voz kechib, yuqori darajadagi avtonomlikka ega bo‘lgan shturm guruhlarining mobil va nuqtali operatsiyalariga tayanmoqda. Urbanizatsiyalashgan hududlardagi to‘qnashuvlar o‘zining uch o‘lchamli tabiati (vertikal, gorizontaal va yer osti) bilan ajralib turib, bu

harbiy xizmatchilardan nafaqat jismoniy tayyorgarlikni, balki texnologik va psixologik moslashuvchanlikni talab etadi. Dronlar va FPV tizimlarining taktik bo‘g‘inga chuqur integratsiyalashuvi razvedka hamda zarba berish siklini qisqartirib, operatsion ustunlikni ta‘minlovchi asosiy omilga aylandi. Shturm taktikalarining “troyka” va “chetvyorka” usulida takomillashtirilishi bino ichidagi 360 darajali nazoratni shakllantirish imkonini beradi. Shuningdek, taktik tibbiyot, muhandis sayyor tayyorgarligi va stress ostida qaror qabul qilish ko‘nikmalari shaxsiy tarkibning omon qolish darajasini oshiruvchi fundamental asoslar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Zamonaviy qurol-aslahalar, xususan, termobarik tizimlar va masofadan boshqariladigan vositalardan foydalanish dushmanning mudofaa salohiyatini minimal yo‘qotishlar bilan parchalashga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, shahar sharoitidagi muvaffaqiyat kichik bo‘linmalarining mustaqilligi, yuqori texnologiyali razvedka ma‘lumotlarining tezkor almashinuvi va har bir jangchining universal mutaxassis darajasida tayyorlanishi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir. Ushbu taktik yo‘nalishlarni tizimli joriy etish milliy xavfsizlik va qo‘shinlarning jangovar shayligini yangi bosqichga olib chiqadi.

Foydalanilgan manbalar

1. Козин В. П. Особенности тактики ведения боевых действий в городских условиях. Вестник Академии военных наук. – 2023. № 2. С. 45-52. (Murojaat sanasi: 19.04.2026).
2. Иванов С. А. Применение малых беспилотных летательных аппаратов в городских боях: опыт современных конфликтов. Армейский сборник. – 2024. № 1. – С. 12-18. (Murojaat sanasi: 19.04.2026).
3. Министерство обороны РФ. Методические рекомендации по подготовке штурмовых групп для действий в урбанизированной местности. М. Воениздат, 2024. – 120 с. (Murojaat sanasi: 18.04.2026).
4. Сидоров В. В. Инженерное обеспечение городского боя: минная безопасность и фортификация. Военная мысль. – 2025. № 3. – С. 88-95. (Murojaat sanasi: 19.04.2026).